

Miqdoriy tartibga solishning monetar siyosat vositalari.

ToshDSHI XMI va M fakulteti
Magistratura 1-kurs yapon-ingliz
guruhi talabasi Ilhamova Z

Ushbu maqola mamlakatda makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, iqtisodiy o'sishga erishishda iqtisodiyotni tartibga solish vositalaridan biri bo'lgan monetar siyosat haqida ma'lumot beradi.

Mamlakatda makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, iqtisodiy o'sishga erishishda iqtisodiyotni tartibga solish vositalaridan biri bo'lgan monetar siyosat iqtisodiyotni pul-kredit munosabatlari orqali tartibga solishning muhim sharti hisoblanadi. Barcha mamlakatlarda Markaziy bank monetar siyosatni amalga oshirishda bevosita (qonunlar, farmonlar, yo'riqnomalar, cheklovlar) va bilvosita (qayta moliyalashtirish stavkasi, majburiy zahiralar stavkasi, ochiq bozor instrumenti, valyuta siyosati) monetar instrumentlardan foydalanadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida bilvosita instrumentlardan foydalanish samarali natija beradi. Jumladan, Markaziy bank majburiy zaxira stavkalarining pasaytirilishi tijorat banklari depozitlari foiz stavkalarini oshirishga sharoit yaratadi. Natijada, banklarning resurs bazasi mustahkamlanadi va kreditlash imkoniyati kengayadi. Markaziy bank tomonidan qayta moliyalash stavkasining pasaytirilishi tijorat banklari kreditlarning foiz stavkalarini pasaytirishga olib keladi. Bu esa tijorat banklarining barqarorligini ta'minlash va o'z navbatida ularning xo'jalik yurituvchi subyektlarning aylanma mablag'larga bo'lgan ehtiyojini qondirish, investitsiya loyihalarini moliyalashtirish hajmini kengaytirish, aholining iste'mol va ipoteka kreditlariga bo'lgan talablarini to'laqonli ta'minlash imkonini beradi.

Bunday siyosat barcha mamlakatlar uchun xos bo'lsada, hozirgi kunda iqtisodiy turg'unlik kuzatilayotgan bir qancha rivojlanayotgan mamlakatlarda iqtisodiy o'sishni ta'minlash maqsadida noan'anaviy pul-kredit siyosati olib borilayotganini ham kuzatishimiz mumkin.

Jumladan, bir necha yildan beri kuzatilayotgan iqtisodiy turg'unlik nafaqat, iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida balki, pul-kredit sohasida ham yangi chora-tadbirlar qo'llashni taqozo qilmoqda. Markaziy bank tomonidan pulning qadrsizlanishiga yo'naltirilgan pul-kredit siyosati iqtisodiyotda yangicha pul-kredit siyosatining yangi yo'nalishi sifatida kirib keldi. Buni iqtisodchilar tilida **“Quantitative easing”** ya'ni (“miqdorni yumshatish”) deb ataladi.¹ Markaziy banklar ushbu noan'anaviy siyosatni an'anaviy pul-kredit siyosati ish bermaganda qo'llab, unga ko'ra, markaziy bank iqtisodiyotga ma'lum miqdorda pul kiritish, bozor foiz stavkalarini pasaytirish uchun davlat obligatsiyalari, moliyaviy

¹ Mary Heather “Quantitative Easing “ Paperback Unabridged Guide

aktivlarni sotib oladi. Bu siyosat, mo'ljallangan qiymatni belgilashda, banklar o'rtasida foiz stavkalarini saqlashga qaratilgan qisqa muddatli davlat obligatsiyalarni sotib olish va sotishning odatdagi siyosatidan farqlanadi.

Bunda davlat obligatsiyalari o'rnatilgan yoki maqsad qilib qo'yilgan banklararo foiz stavkasiga yetish maqsadida ochiq bozorda sotiladi. Agar markaziy bank foiz stavkalarini nolga yetguncha pasaytirgan holda ham retsessiya yoki depressiya jarayoni davom etsa, markaziy bank bundan pastroq foiz stavkalarini bera olmaydi. Shunda markaziy bank tomonidan "miqdoriy yumshatish" siyosatidan foydalanadi. Ammo, qisqa muddatli foiz stavkalari nolga yaqin yoki nolga yetganida bu usul foyda bermaydi. "miqdor yumshatish" dan iqtisodiyotning uzoq muddatli kelgusi rivojlanishi maqsadida foydalanish mumkin. Bu qisqa muddatli davlat obligatsiyalaridan foydalanishdan ko'ra ko'proq foyda beradi.

Ammo, pul-kredit siyosatining "miqdoriy yumshatish" usulidan mamlakatdagi valyutani nazorat qilgan holdagina amalga oshirilishi mumkin. Masalan, Yevropa Ittifoqida pul-kredit massasini bir mamlakat o'zi nazorat qilish imkoniyatiga ega bo'lmaganligi sababli "miqdoriy yumshatish"ni ham qo'llay olmaydi. Buning o'rniga mamlakat Yevropa Markaziy bankiga pul-kredit siyosatini olib borish taklifi bilan murojaat etadi.

Miqdoriy yumshatish birinchi marta 2000-yillarda yuz bergan maishiy deflyatsiyaga qarshi kurashish maqsadida Yaponiya banki tomonidan qo'llanilib, 2001 yil 19 martda Markaziy Bank miqdoriy yumshatish siyosatini olib borish haqida qaror qabul qilgan.

Yapon banki katta miqdorda davlat obligatsiyalarini sotib olish yo'li bilan xususiy shaxslarni kreditlash, ularning likvidligini ta'minlash maqsadida katta miqdorda mablag' to'pladi. Shu orqali foiz stavkasi nolga yaqinlashdi. Keyinchalik qimmatli qog'ozlar va aksiyalarni aktivlar bilan sotib oldi. Shu bilan birgalikda uning tijorat maqsadidagi ishlatilish muddati cho'zdirildi. Yapon Banki tijorat banklari hisob raqamidagi qoldiqni yuqoridagi jarayonlar orqali 2001-yildan boshlab to'rt yil ichida ¥ 5trln dan ¥ 35trln (300 mlrd AQSH dollari) gacha yetkazdi.²

Yapon Markaziy banki tomonidan qo'llanilayotgan bunday noan'anaviy usul, yena qadrining tushishi, shuning barobarida, eksportgachiqarilayotgan tovarlar qiymatini biroz tushirib, raqobatbardoshligining yanada oshishiga sabab bo'ldi.

Jahon valyuta fondi ma'lumotlariga qaraganda, miqdoriy yumshatish siyosati 2000-yillardagi inqiroz vaqtida rivojlangan mamlakatlar Markaziy banki tomonidan olib borilgan holatda bozorda ishonchga ega bo'lgan va Katta Yettilik mamlakatlariga 2009-yildagi chuqur inqiroz vaqtida ham katta yordam bergan. Miqdoriy yumshatish 2010-yilning 2-yarmida fond bozorida jonlanishni yuzaga keltirdi, bu esa o'z navbatida talabni oshirdi.

Shuni ham alohida ta'kidlab o'tishimiz kerakki, miqdoriy yumshatish usuli kutilgandan yuqoriroq inflyatsiyaga olib kelishi, agar bank avvalgidek, kreditlarni tashkilotlar va uy xo'jaliklariga berishni davom ettirsa, talabni rag'batlantirmasligi mumkin. Shu bilan birga, miqdoriy yumshatishni qo'llagan vaqtda bashorat qilish

² <http://www.economist.com/blogs/economist-explains/2014/01/economist-explains-7>

imkoniyati yo'qoladi. Shuning uchun, banklar tomonidan yangi pullar qiyin ahvoldagi uy xo'jaliklariga emas, rivojlanayotgan bozorlarni investitsiyalash maqsadida ishlatilgandagina maqsadga muvofiq bo'ladi.